



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

337-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 19- iyundagi PF–91-son Farmoni ijrosi haqida”gi 303-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyundagi PF–91-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 303-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 303-6-0-Q/24-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyundagi PF–91-son Farmoni bilan:

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida (keyingi o‘rinlarda — Oliy Majlis Senati) O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanishi to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzani (keyingi o‘rinlarda — milliy ma‘ruza) muhokama qilish tartibini joriy etish haqidagi taklifi ma‘qullanganligi;

belgilanishicha:

Oliy Majlis Senati tomonidan ustuvor xalqaro reyting va indekslarning ro‘yxatini tasdiqlashda tegishli xalqaro reyting hamda indekslarga mutasaddi vazirlik va idoralar birlashtirilishi;

mutasaddi vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari Oliy Majlis Senati tomonidan belgilangan ustuvor xalqaro reyting va indekslarda respublikaning o‘rni

yaxshilanishi, shuningdek, ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga (keyingi o‘rinlarda — maqsadli ko‘rsatkichlar) erishilishi uchun shaxsan mas‘ul hisoblanishi;

2025-yildan boshlab respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va rahbar o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ularning ustuvor xalqaro reyting va indekslarda respublikaning o‘rnini yaxshilashga qaratilgan faoliyati belgilanishi;

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining (keyingi o‘rinlarda — Respublika kengashi) yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Oliy Majlis Senatiga bir oy muddatda vazirlik va idoralarni birlashtirgan holda, ustuvor xalqaro reyting va indekslarning ro‘yxatini hamda maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlash tavsiya etilganligi;

Xalqaro reyting va indekslarning ustuvor sohalari hamda ularning ishchi organlar bo‘yicha taqsimoti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish, ularga obuna bo‘lish, reyting agentliklari mutaxassislarini, xalqaro ekspert va konsultantlarni jalb qilish, respublikada forumlar hamda boshqa tadbirlar tashkil etish, targ‘ibot va tashviqot

ishlarini amalga oshirish, Yagona portalni takomillashtirish va uni saqlab turish hamda ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan bog'liq boshqa xarajatlar Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hisobidan qoplanishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 4-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha viloyat kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Kengashning asosiy vazifalari etib quydagilar:

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-xuquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishni ta'minlash, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etishi;

O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish belgilanganligi;

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha viloyat Kengashining ishchi organlari etib Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Adliya boshqarmasi belgilanganligi;

Kengash ishchi organlari O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar mamlakatning o'rnini yaxshilashga qaratilgan ta'sirchan choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hamda ushbu yo'nalishida tizimli xalqaro hamkorlik olib borilishi ustidan Kengash tomonidan nazorat o'rnatilishi;

Kengash ishchi organlari:

O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda viloyatning o'rnini yaxshilashga qaratilgan ta'sirchan choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etishi;

ushbu yo'nalishda tizimli xalqaro hamkorlik olib borilishini ta'minlashi;

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha Respublika Kengashi va uning ishchi organlari bilan doimiy ravishda tizimli ishlar tashkil etishi;

amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha belgilangan muddatlarda Respublika Kengashi va uning ishchi organlariga tegishli ma'lumotlarni kiritib borishi;

Respublika Kengashi va uning ishchi organlaridan beriladigan topshiriqlarning o'z muddatida ijrosini tashkil etishi;

viloyatda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash faoliyati yuzasidan viloyat hokimligiga doimiy ma'lumotlar kiritib borishi;

Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va qambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abduhamidov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) hamda viloyat adliya boshqarmasi (D.Ahmedov) bilan birgalikda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha viloyat Kengashining ishchi organlari faoliyatini samarali tashkil etib borish uchun viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot va qambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyati mudiri boshchiligida doimiy ishlovchi mas'ullarni belgilanganligi;

Belgilab qo'yilishicha, tegishli viloyat boshqarma va idoralarining birinchi rahbarlari har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar Kengash ishchi organlariga viloyatda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, zarur statistik axborotlar va boshqa materiallarni taqdim etib borishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev